

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ASENBAEVA GULNARA XUDAYBERGENOVNA

KARAMATDIN SULTANOV NASRINING POETIKASI

10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Asenbaeva Gulnara Xudaybergenovna Karamatdin Sultanov nasrining poetikasi.....	3
Асенбаева Гулнара Худайбергеновна Поэтика прозы Караматдина Султанова.....	25
Asenbaeva Gulnara Xudaybergeovna Poetics of Karamatdin Sultanov’s prose.....	47
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	51

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ASENBAEVA GULNARA XUDAYBERGENOVNA

KARAMATDIN SULTANOV NASRINING POETIKASI

10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1915 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Orazimbetov Quanishbay Kelimbetovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Keruenov Turganbay Arazmedovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ayapov Amanjol Tlepovich
filologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar
ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «29» avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, email: karsu_info@edu.uz)


(15) Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, email: karsu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «15» avgust kuni tarqatildi.
(2023 yil «15» avgust dagi 3 raqamli reestr bayonnomasi).




Z. U. Bekbergenova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais v.v.b.
filol.f.d. / professor


D.B. Seytkasimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
koini, filol.f.f.d.(PhD) dotsent


Q.Q. Jarimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi filol. f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida yozuvchining ijodiy qobiliyati, asar yozish mahorati, ijodkor inson va uning badiiy asarining butunligi masalalariga alohida diqqat qaratilmoqda. Har qanday davrda ham jamiyat mafkuraviy qarashlarning o'zgarishi bilan adabiyotga bo'lgan munosabat ham o'zgaradi. Mana shu jihatdan, badiiy adabiyot sohasida o'ziga xos mahorat maktabini yaratgan ijodkorlarning asarlari jamiyatning keng mushohada yuritishiga katta hissa qo'shadi.

Dunyo adabiyotida juda murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan XX asr badiiy adabiyot vakillari asarlarida davrning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda adabiy jarayonlari o'z aksini topdi. Har bir ijodkor qalamga olgan hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishida g'oyaning muhim ahamiyatga egaligi, badiiy obrazning ishonarli tasvirlanishi hamda xarakterlarning to'liq ochilishi, sujet va kompozitsiya butunligi, so'zdan o'rinli foydalanishi yozuvchining maqsadi hamda poetik mahoratisiz yuqori saviyaga erishish mumkin emas. Demak, ma'lum bir davrga oid yozuvchining umumiy ijodini tutash tarzda o'rganishda badiiy asarning poetikasi bilan birga yozuvchining badiiy mahoratini o'rganish zarur uligi namoyon bo'ladi.

Har bir xalq adabiyotida umuminsoniy qadriyatlar o'sha xalqning milliylik namunasi doirasidan kelib chiqib tasvirlanadi. Asardagi mana shunday xususiyatga ega qalamkashlar qatorida qoraqalpoq adabiyoti tarixida yozuvchi K.Sultonovning ijodini ta'kidlash lozim. Uning qoraqalpoq adabiyotiga qo'shgan hissasi katta. Yozuvchining bir qator hikoya, ocherk, qissa, memuar asar va romanlarni yuqori saviyada kitobxonlarga taqdim etishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, "mamlakitimiz asrlar davomida jahon taraqqiyotining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish..."¹ zarur bo'lgan bir payta milliy adabiyotimizni bugungi zamonaviy ilm-fan yutuqlari hamda ijtimoiy-adabiy qarashlar asosida o'rganishdek muhim vazifalarni bajarishda yozuvchi K.Sultonovning nasriy asarlari poetikasini, jumladan, uning asarlaridagi obraz va xarakter yaratish mahorati, usullari, sujet va kompozitsiya qurilishi, badiiy ijodkorlik usullari hamda tasviriy vositalardan foydalanish mahoratini o'rganish muhim masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi 1271-sonli "Kitob mahsulotlarini chop ettirish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlik va uni targ'ibot-tashviqot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi PQ-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkillashtirish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada

¹ Мирзиёев Шавкат. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 302.

rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrda 6108-son "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan tarmoqlarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarining keng jamoatchilikda ijrosi va amal qilinishidagi me'yoriy hujjatlar, Farmon va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublikaning fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik mamlakatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini yo'lga qo'yish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotida badiiy asar poetikasini o'rganish asoslari Aristoteldan boshlab, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, G.Gegel, V.G.Belinskiy singari jahonga tanikli allomalarning asarlari orqali barchaga ma'lum. Adabiyotshunoslikda badiiy asar poetikasi juda keng qamrovli bo'lib, rus adabiyotshunosligida V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin, A.Fedorov, V.V.Tomashevskiy, G.V.Stepanov, G.O.Vinokur, G.P.Yakubinskiy, N.V.Dragomireskaya, V.Ye.Xalizev, V.V.Odinov, I.V.Nesterov, G.Stepanov va h.k. olimlar tomonidan poetikaning har xil masalalari bo'yicha tadqiqot olib borilgan².

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar poetikasining janr, obraz, badiiy til, badiiy asar va h.k. masalalari keng o'rganilgan bo'lsa³, qozoq, tatar,

² Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Худ. лит-ра, 1959; O'sha muallif. Проблема авторства и теория стилей. – М., 1961; O'sha muallif. О теории художественной речи. – М., 1971; O'sha muallif. О теории новеллы // Вопросы марксистской поэтики. – М., 1972.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Худ. лит-ра, 1972; O'sha muallif. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986; O'sha muallif. Проблемы поэтики и история литературы. –Саранск: Прогресс, 1973. – 271 с.; Федоров А. Язык и стиль художественного произведения. – М.-Л.: ГИХЛ, 1963; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: 1987; Одинцов В.В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1973; Нестеров И.В. Диалог и монолог / В кн.: Литературные жанры. Проблемы типологии и поэтики. Под ред. Л.В.Чернец – М.: МГУ, 1982; Томашевский Б.В. Стилистика. 2-е, изд. – Л.: ЛГУ, 1983; Степанов Г.В. Язык, литература, поэтика. – М., 1983; Драгомирецкая Н.В. Автор и герой в русской литературе XIX-XX вв. – М.: Наука, 1991; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2000; Кожин В. Повесть. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 272; Лихачев Л.С. Неравнодушная проза. – М.: Художественная литература, 1984. – С. 314; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С. 614; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – С. 407; Чуковский К. Мастерство Некрасова. – М., 1955.

³ Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983; Жўракулов. У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; O'sha muallif. Алишер Навоий "Ҳамса"сида хронотоп поэтикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дис. автореф. – Т., 2017; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: Шарқ, 2004; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талкин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. – Тошкент, 1996. Қосимов Я. Ўзбек шеърларида поэтик фикрининг янгилашиши: Филол. фанл. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 1991; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллар ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дис. – Т., 2002; Бобониёзов А.Ю. А.Қодирий «Ўткан кунлар» романида тасвирий воситалар ва тил бадийлиги: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Тошкент, 1995. – 24 б.; Дониёрова Ш. Шукр Холмирзаев хикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Тошкент, 2000. – 26 б.; Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2004. – 163 б.; Дўстмухаммедов Х. Ҳазирги ўзбек хикоячилигида бадий тафаккурнинг янгилашиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –

turkman, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlar adabiyotshunosligida bir qator olimlarning badiiy asar poetikasiga oid maxsus tadqiqotlari mavjud⁴.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida M.Nurmuhamedov, J.Narimbetov, A.Qoqibaev, Q.Sultanov, Z.Nasrullaeva, S.Bahadirova, T.Qurbanbaeva, J.Yesenov, P.Nurjanov, Z.Bekbergenova, H.O'temuratova, J.Sag'iydullaeva, J.Qaniyazova, Z.Qitaybekovalarning tadqiqotlarida nasriy asarlarning poetikasi masalalari haqida so'z yuritilgan bo'lsa, Q.Bayniyazov, A.Pirnazarov, B.Genjemuratov, Q.Orazimbetov, Q.Jarimbetov, J.Maqsetova, A.Dosimbetova, Sh.Sayimbetov va boshqa olimlarning⁵ ilmiy ishlarida

Тошкент, 1995. – 28 б.; Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1994. – 162 б.; Имомова Г.М. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 1993. – 135 б.; Имомқаримова М. Ў.Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2004. – 150 б.; Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси: Филол. фан. д-ри.... дис. – Тошкент, 1994. – 320 б.; Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Филол. фан. д-ри. ... дис. – Тошкент, 1991. – 354 б.; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмухаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2006. – 161 б.; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. – Тошкент, 1993. – 48 б.; Ширинов С. Образное изображение и индивидуальные стиль (по романам А.Мухтара): Дис. ... канд. филол. наук. – С., 1974; Сопиева Ш. Хайридин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2006. – 147 б.; Кўбаев К. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2006; Каримова Ю. Пиримқул Қодиров қиссаларида маънавий-ахлоқий муаммоларнинг бадий талқини: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2005; Ҳамроев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент, 2018.

⁴ Ахметов З. Поэтика эпопеи “Путь Абая” в свете её создания. – Алматы: Наука, 1984; Айтмухамбетова Ж. Мифтин поэтикадағы қызметі: қазіргі кезең поэзиясы арқылы. – Алматы, 2010; Ысмайұлы Е. Шашкин З. Абайдың поэтикасы. /<https://abai.kaznu.kz>; Есембеков Т.У. Көркем мәтін поэтикасы. – Алматы: Қазақ Университеті, 2012; Қабдолов З. Сөз өнері: Әдебиет теориясының негиздери. – Алматы. Мектеп. 1983. – Б. 297; Өшимбаев С. Талантқа тағзым. – Алматы, 2003. Әдибаев.Х. Ұақыт және сүүреткер – Алматы, 1997. – Б. 45; Нурғалиев Р. Мухтар Әуезов шығармаларының көркемдік поэтикасы. Классикалық зерттеудер. 29-т. <https://kitap.kz/book/>; Гылычдурдыев А. Роман ве уссатлык. – Ашгабат, 1981; Азизова М. Мастерство Чингиза Айтматова: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 1974; Насибуллаева Г.Р. Хэзерге татар әдэбиятында хикэя жанры поэтикасы. Монография. – Казань: ХЭТЕР, 2011. – 171 с.

⁵ Нурмухамедов М. Современная каракалпакская проза. – Нөкис, 1968; Таңдамалы шығармаларының 2 томлығы. 2-т. – Нөкис, 1985; Нарымбетов Ж. Каракалпакский роман. – Т.: ФАН, 1975; Кожықбаев Ә. Каракалпак романы. – Нөкис: Каракалпакстан, 1977; Султанов Қ. Прозаның раўажланыў жоллары. – Нөкис: Каракалпакстан, 1977; Бахадырова С. Роман хэм дәўир. – Нөкис: Каракалпакстан, 1978; З.Насрулаева Проблема типа и характера в современной каракалпакской прозе. – Нөкис, 1984; Қурбанбаева Т. Сюжет и композиция в современной каракалпакской прозе. – Т.: ФАН, 1991; Есенов Ж. Шеберликтин сырлары. – Нөкис: Каракалпакстан, 1986; О'sha muallif. Сөз қәдири. – Нөкис: Каракалпакстан, 1989; Орынбетова Н. Проблема характера героя в каракалпакском романе 80-х годов: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нукус, 2001; Өтемуратова Ҳ. Каракалпак тарийхий романының поэтикасы. – Нөкис: Каракалпакстан, 1997. – Б. 71; Нуржанов П. Дәўир талабы хэм көркем әдебиет. – Нөкис: Билим, 1993; Ҳәзирги каракалпак романы поэтикасы (композициялық хэм жанрлық-стильлик өзгешеликтери). – Нөкис: Билим, 2008; Ҳәзирги каракалпак романы (сюжет хэм конфликт поэтикасы). – Нөкис: Билим, 2009; Сағыйдуллаева Ж. Каракалпак повестьлеринде стильлик изленислер (1980-жыллар повестлери мысалында): Филол. илим. канд. ... дис. – Нөкис, 2010; Бекбергенова З. Каракалпак романларында көркем сөз поэтикасы (1980-2010-жыллар). – Нөкис: Илим, 2016; Қытайбекова З. Ғәрезсизлик дәўири каракалпак гүрринлеринин поэтикасы: Филол. илим. филос. д-ры (PhD) ... дис. – Нөкис, 2021; Жәримбетов Қ. XIX әсир каракалпак лирикасының жанрлық қәсийетлари хэм раўажланыў тарийхы. – Нөкис: Билим, 2004; Оразымбетов Қ. Ҳәзирги каракалпак лирикасында көркем формалардың эволюциясы хэм типологиясы. – Нөкис: Билим, 2004; Генжемуратов Б. Өжинияз лирикасы поэтикасы. – Нөкис: Билим, 1997; Максетова Ж. Поэтическое мастерство Ибрагима Юсупова: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992; Сайымбетов Ш. XX аср иккинчи ярми қарақалпоқ поэмаларининг поэтик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. – Нөкис, 2020; Алламурастов Г. Ҳәзирги каракалпак романларында портрет поэтикасы (Ш.Сейитов, Қ.Матмуратов, К.Каримов романлары мысалында): Филол. илим. филос. д-ры (PhD) ... дис. – Нөкис, 2022; Нурабуллаев Н.

qoraqalpoq shoirlari asarlarining poetik xususiyatlari masalalari o'rganilgan. Yuqorida keltirilgan ilmiy taqiqotlar dissertatsiya ishini bajarishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, qoraqalpoq aabiyotshunosligida yozuvchi K.Sultanovning ijodi ham M.Nurmuxammedov, I.Sag'iytov, J.Narimbetov, Q.Sultanov, A.Kojiqbaev, K.Mambetov, P.Nurjanov, H.O'temuratovalarning ilmiy fikrlari, tahlillari ichida qaraldi⁶.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "Qoraqalpoq adabiyotini o'rganish va adabiyotshunoslik fanining muhim muammolari", "Hozirgi filologiya fanlarining muhim masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Karamatdin Sultanov nasriy asarlarining janr, uslub va badiiy til poetikasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

K.Sultanov prozasining XX asr qoraqalpoq adabiyotida tutgan o'rni; qoraqalpoq adabiyotshunosligida K.Sultanov ijodining o'rganilishi va tadqiq qilinish darajasini aniqlash;

K.Sultanov nasriy asarlarining janri va uslubiy xususiyatlarini aniqlashtirish;

yo'zuvchining hikoya, ocherk, qissa hamda memuar janrlaridagi asarlarida qo'llanilgan ijodkorlik usullarini aniqlash;

portretlar va peyzajlarning yo'zuvchi asarlaridagi poetik vazifalarini va ahamiyatini ochib berish;

yo'zuvchining "Oqdaryo", "Ajiniyoz" romanlaridagi sujet va konflikt poetikasini o'rganish;

K.Sultanov romanlaridagi qahramon obrazini va xarakterini yaratishdagi mahoratini aniqlash;

yo'zuvchi nasrida badiiy til poetikasini tahlil qilish, badiiy tasvirlash qurollarining poetik xizmatini ko'rsatish.

Tadqiqotning obykti. K.Sultanovning "Ovuldoshlarim" (1960) hikoya va ocherklari, "Akalar hikoyasi" (1968) nomli qissasi va "Ajiniyoz" romani (1967,2019), "Oqdaryo" romani (1962, 1975, 2018), "Hayot daftari" (1991) memuar asari dissertatsiya ishini tayyorlashda asosiy manbalar hisoblanadi.

Ғарезсизлик жылларында қарақалпақ әдебиятында мемуар жанрының раўажланыўы: Филол. илим. филос. д-ры (PhD) ... дис. – Нөкис, 2022.

⁶ Нурмухаммедов М.К. Каракалпақская советская проза. – Ташкент: Фан, 1968; Сағитов И. Әдебият хәм дәўир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988; Нарымбетов Ж. Карақалпақский роман. – Ташкент: Фан, 1974; Султанов Қ. Прозаның раўажланыў жоллары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977; Қожықбаев Ә. Қарақалпақ романы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977; Қожықбаев Ә. «Ақдәрья»ны оқығанда // Әмиўдәрья. – Нөкис, 1962. - №10; Бахадырова С. Роман хәм дәўир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978; Мәмбетов Қ. Әдебият теориясы. – Нөкис: Билим, 1995; Нуржанов П. Дәўир талабы хәм көркем әдебият. – Нөкис: Билим, 1993; О'ша муаллиф. Көркем прозаның баянлаў усылы хәм оны изертлеўдиң айырым теориялық мәселелери // Әмиўдәрья. – Нөкис, 2002. - №5; Өтемуратова Х. Қарақалпақ тарийхий романының поэтикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1997; Его же. Тарийхий романның сюжети // ӨзИИАҚҚБ Хабаршысы. – Нөкис, 2000. - № 5.

Tadqiqotning predmeti. K.Sultanov nasriy asarlarining poetikasi, shu jumladan, yozuvchining shakliy, janr, uslubiy izlanishlari, sujet va konflikt qurish poetikasi, obraz hamda xarakter yaratish usullari, asarning badiiy tili masalalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Yozuvchi K.Sultanov nasrining poetikasini o'rganishda qiyosiy, tarixiy-qiyosiy, tipologik, badiiy-estetik va badiiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

yozuvchi nasridagi uslubiy-janriy hamda shakliy izlanishlari tarixiy sharoit, badiiy manbalar va hayotiy faktlarning badiiy haqiqatga aylanishi natijasida yuzaga kelganligi, janrlar evolutsiyasi oddiydan murakkablikka qarab tamoyili asosida ocherk va hikoyadan romangacha rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi dalillangan;

yozuvchining nasriy asarlarida badiiy portret ijodiy usul sifatida voqealarga bog'liq statik hamda dinamik, detallarga ko'ra qahramonning tana a'zolarini, kiyim-kechagini, ruhiy holatini yetkazib berish uchun qo'llanilganligi, manzarani tasvirlashda voqea o'rnini hamda vaqtni belgilash, sujetli dalil, psixologizm shakli, muallifning ishtiroki shaklida badiiy vazifalarni bajarganligi ochib berilgan;

Karamatdin Sultanovning "Oqdaryo" romanida obraz yaratishdagi poetik mahorati E.Xeminguey, V.Rasputin, Ch.Aytmatov asarlaridagi qochqin obrazining evolutsiyasi va obrazning badiiy yechimidan real hayotga yaqinligi, yozuvchining roman yozishdagi badiiy-estetik uslubi qoraqalpoq romanchiligi poetikasini yangi badiiy usullar bilan takomillashtirishga, bundan keyingi milliy romanchilik poetikasidagi real tasvirlash usulining paydo bo'lishiga ko'prik vazifasini bajarganligi aniqlangan;

Karamatdin Sultanov asarlari XX asr qoraqalpoq nasri tizimida muhim g'oyaviy-tematik va janriy ahamiyatga ega bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nasrdagi badiiy mahorat dolzarb jarayon ekanligi K.Sultanovning badiiy ijodiyotida badiiy mahoratning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali dalillangan;

yozuvchining janr izlanishlari hikoya va ocherklardan romanga va memuarigacha rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi aniqlangan;

K.Sultanov nasriy asarlarining poetikasiga ta'sir etgan hayotiy dalillar sifatida yozuvchi hayot kechirgan ijtimoiy muhit, aholining turmush tarzi, u yashagan davrdagi tarixiy-madaniy sharoitning ta'siri ochib berilgan;

yozuvchi romanlarining poetikasidagi ziddiyatli vaziyatlarni yaratishdagi badiiy haqiqat, sujet yaratish xususiyatlari, badiiy obraz va xarakterni ochib berishda dialog, monolog, portret, lirik chekinish, muallif so'zi singari badiiy usullar orqali qoraqalpoq nasrining bayon etish poetikasini badiiy jihatdan takomillashtirganligi belgilab berilgan;

Yozuvchining nasriy asarlari syujetining ekspressivligini ta'minlovchi badiiy so'z qatlamlarida kasbiy so'zlarning badiiy vazifasi, etnografik ma'lumotlarning ko'p o'rin olishi hamda ularning ahamiyati aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchliligi ilmiy va badiiy manbalardan olinganligi, ilmiy xulosalar qiyosiy, tarixiy-qiyosiy, tipologik, badiiy-estetik hamda badiiy tahlil metodlariga asoslanganligi, ilmiy xulosa va tavsiyalar amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalar tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishda qoraqalpoq adabiyotida K.Sultonovning nasriy asarlari poetikasining janr, uslubiy, shakliy xususiyatlari, ijodkorlik usullari bo'yicha keltirilgan xulosalari hamda bu bo'yicha qoraqalpoq adabiyotshunosligida shakllangan fikrlarni yanada takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishi XX asr qoraqalpoq nasri va yozuvchining badiiy poetikasi bo'yicha oliy o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishi talabalari, akademik litseylar, umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda filolog mutaxassislar uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratganda, yozuvchining badiiy ijodi masalalari bo'yicha maxsus kurslar o'tishda ilmiy-amaliy asos sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yozuvchi K.Sultonov nasrining poetikasini o'rganish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Karamatdin Sultanov asarlarining XX asr qoraqalpoq nasri tizimidagi g'oyaviy-tematik va janriy ahamiyati bo'yicha ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F-1-005- sonli "Qoraqalpoq folklorshunoslik va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 30-noyabrdagi 490/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning qoraqalpoq adabiyotshunosligining rivojlashishida hikoya, ocherk, qissa, roman hamda memuar asarlarni o'rganishga bag'ishlangan fasllari dissertatsiyadagi ilmiy xulosalar bilan boyitilgan;

yo'zuvchi nasridagi uslubiy-janr va shakliy izlanishlar tarixiy sharoit, badiiy manbalar va maishiy dalillarning badiiy haqiqatga aylanishi natijasida yuzaga kelganligi, janr evolutsiyasi oddiydan murakkablikka qarab tamoyili asosida ocherk va hikoyadan romangacha taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan F1-FA-0-43429, FA-F1, GOO2 "Qoraqalpoq folklori va abaiyoti janrlarining nazariy masalalarini o'rganish" (2012-2016) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 30-

noyabrdagi 489/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning qoraqalpoq adabiyotida hikoya, ocherk, qissa, roman va memuar asarlarning janr xususiyatiga bag'ishlangan bo'limlari dissertatsiyadagi ilmiy xulosalar bilan takomillashtirilgan;

yo'zuvchining nasriy asarlarida badiiy portret ijodkorlik usuli sifatida voqealarga bog'liqligiga ko'ra statik va dinamik, detallarga munosabatiga ko'ra qaharmonning tana a'zolarini, kiyim-kechagini, ruhiy holatini yetkazib berish uchun qo'llanilganligi, manzarani tasvirlashda voqeaning o'rnini va vaqtini belgilash, sujet dalili, psixologik shakli, muallif ishtiroki shakli sifatida badiiy vazifa bajarganligi haqidagi ilmiy xulosalarni Qoraqalpog'iston teleradiokanali "So'nmas yulduzlar", "Adabiyot va davr", "Tarixiy shaxslar", "Yoshlar ushuni", "Meros", "Xalq durdonasidan" ko'rsatuvlari hamda eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2021-yil 2-noyabrdagi 01-02.513-son ma'lumotnomasi). Natijada K.Sultanov asarlarining qoraqalpoq nasrida tutgan o'rni, janr va badiiy-estetik jihatlari, poetik tadqiqotlarini keng jamoatchilikka targ'ib qilishga erishilgan.

Karamatdin Sultanovning "Oqdaryo" romanida obraz yaratishdagi poetik mahorati E.Xeminguey, V.Rasputin, Ch.Aytmatov asarlaridagi qochqin obrazining evolutsiyasi va obrazning badiiy yechimidan real hayotga yaqinligi qiyosiy usulda dalillanib, yo'zuvchining roman yozishdagi badiiy-estetik tamoyillari qoraqalpoq romanchiligi poetikasini yangi badiiy usullar bilan takomillashtirishga, bundan keyingi milliy romanchilik poetikasidagi real tasvirlash usulining paydo bo'lishiga ko'priq vazifasini bajarganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Yo'zuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan nasr kengashiga bag'ishlangan seminarlarda va yil yakuniga bag'ishlangan chora tadbirlarda ma'ruza sifatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Yo'zuvchilar uyushmasining 2022-yil 30-noyabrdagi 117-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh ijodkorlarning K.Sultanov ijodi haqida keng ma'lumotga ega bo'lishiga hamda badiiy mahoratini oshirish bo'yicha tushunchalarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika, 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 4 maqola respublikada, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, predmeti hamda obykti, tadqiqot usullari belgilangan, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“K.Sultonovning qoraqalpoq nasridagi o'rni”** deb nomlangan. Ikki fasldan iborat ushbu bobning **“K.Sultonov nasrini tadqiq qilishning ilmiy-nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi faslida XX asrdagi qoraqalpoq nasrining rivojiga katta hissa qo'shgan yozuvchi K.Sultonovning ijodi adabiy tanqid va adabiyotshunoslik obykti sifatida o'rganildi.

Nasr qoraqalpoq adabiyotining eng yirik badiiy janridan biri bo'lib, u XX asrning yarmiga kelib, g'oyaviy-mavzuviy hamda janriy jihatdan keng rivojlandi. Mana shu davrda ocherk, hikoya kabi kichik nasriy asarlar yaratilgan bo'lsa, keyinchalik badiiy mahoratning ortishi bilan qissa, roman, memuar asarlarning ham yuzaga kelishi buning yorqin misolidir. Yozuvchi K.Sultonovning nasriy asarlari qoraqalpoq nasrida mana shunday izchillikda yaratila boshlandi.

K.Sultonov ijodi haqida 1960-yillardan boshlab gazeta-jurnallarda ilmiy maqolalar e'lon qilina boshlandi. Masalan, yozuvchining ijodi haqida, ya'ni, uning asarlarining ba'zi masalalari borasida ma'lumotlar **“Qoraqalpoq sovet adabiyoti tarixining ocherklari”** nomli to'plamda berilgan⁷. Shuningdek, taniqli olim I.Sag'itovning **“Oqdaryo”** romani to'g'risida nomli maqolasida romanning g'oyaviy mazmuni, ya'ni, romanda tasvirlanadigan voqea-baliqchilarning ikkinchi jahon urushi yillaridagi maishiy holatini yozuvchining yuksak badiiylik bilan tasvirlaganini ta'kidlaydi. Mazkur maqolada K.Sultonovning **“Oqdaryo”** romanining g'oyaviy mazmuni Q.Ermanovning **“Baliqchilar qissasi”** qissasi, A.Begimovning **“Baliqchining qizi”** romani, O'.Ayjanovning **“Orol quchog'ida”** nomli romanlariga yaqin ekanini ham e'tirof etadi. Ularning farqli jihatlari sifatida har yozuvchi bir davr ichidagi voqealarni tasvirlashini va shu mavzuda yozilgan asarlar mualliflarining o'z uslubiga ega ekanligini keltiradi. Shuning uchun ham olim I.Sag'itov **“Oqdaryo”** romanining boshqa asarlardan farqli xususiyatlari va qimmatini uning badiiy xususiyatlarida⁸ - deb ko'rsatgan. Taniqli olim M.Nurmuxamedov

⁷ Қарақалпақ совет әдебияты тарийхының очерклери. – Ташкент-Самарқанд: Фан, 1968. – Б. 360-365.

⁸ Сағитов И. «Ақдәрья» романы туўралы. Усы мақала әўели «Әмиўдәрья» журналының 1963-жыл 10-санында жәрияланған еди. Кейин ала илимпаздың илимий сын-мақалалары бир топлам болып, 1988-жыл, «Қарақалпақстан» баспасынан «Әдебият хәм дәўир» деген ат пенен китап болып шықты. Биз усы китап бойынша И.Сағитовтың мақалаларынан пайдаландық 181-195-бетлер.

o'zining "Qoraqalpoq sovet nasri"⁹ nomli qo'llanmasida "Hozirgi zamon qoraqalpoq nasri" (1956-1964 yy.) degan maqolasini e'lon qilgan. Mazkur kitobning 293-304-betlarida M.Nurmuxamedov yozuvchi K.Sultanovning asarlari to'g'risida ya'ni "Oqdaryo" romanining g'oyaviy-mazmuni, sujeti, kompozitsiya qurilishi, obrazlar to'g'risida fikr yuritib, ushbu roman bo'yicha fikr bildirgan olimlar: A.Qojiqbaev, I.Sag'itovlarning Nozli obraziga bildirgan fikrlariga hamda Q.Maqqetovning Tleumurat obrazini baholashlariga o'z munosabatini bildirib, o'z takliflarini ham o'rta tashlagan. U o'z fikrlarini romandan olingan misollar orqali dalillashga harakat qilgan. Muallif yozuvchi K.Sultanovning "Oqdaryo" romanini yaxshi yozilgan asar ekanligini alohida ta'kidlaydi. M.Nurmuxammedovning bu asari qoraqalpoq nasrini o'rganishda muhim ish ekanligini ta'kidlash lozim.

Qoraqalpoq nasrining eng yirik janrlaridan biri – romanlarni tadqiq qilish sohasida tinimsiz ish olib borayotgan olimlardan J.Narimbetov¹⁰, Z.Nasrullaeva "Hozirgi zamon qoraqalpoq nasrida qahramon" (Nukus, 1976) hamda mana shu ishni yanayam to'ldirib, keyinchalik "Hozirgi zamon qoraqalpoq nasrida tip va xarakter masalasi" (Nukus, 1984), A.Qojiqbaev¹¹, S.Bahadirova¹², A.Sultanov¹³, K.Mambetov, P.Nurjanov, Z.Bekbergenova, H.Otemuratova¹⁴ va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor. Olimlarning yozuvchi asarlariga qanday munosabatda bo'lganini, uning asarlarining qaysi jihati o'rganilganini to'la bir tizimga solib, yuzaga kelgan tanqidiy maqolalarning barchasida K.Sultanovning asarlari to'g'risida aytilgan fikrlarning faqatgina nasr masalalariga bag'ishlangan ilmiy taqiqotlarda ham kichik hajmli ilmiy maqolalarda berilganini, lekin yozuvchining asarlari monografiya shaklida o'rganilmay umumiy tarzda fikr yuritilganligi haqida xulosaga kelish mumkin.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **"Yozuvchining nasriy asarlarida janriy va uslubiy izlanishlar"** deb nomlanib, unda yozuvchining badiiy asar yaratishdagi uslubiy, janr va shakliy izlanishlari evolutsiyasi tahlil qilindi.

Karamatdin Sultanov o'z ijodida qoraqalpoq xalqining turmushi bilan bog'liq tipik voqealarga tanish bo'lgan mavzularga ko'proq e'tibor beradi. Shu boisdan uning asarlaridagi ko'pgina obrazlar xayoliy o'ylab topilgan emas, balki hayotdan olingan, yozuvchining o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'zi qatnashgan voqealarining, eshitgan hikoyalarning, o'qigan kitoblaridagi inson umrining badiiy aksi sanaladi.

⁹ Нурмухаммедов М.К. Каракалпакская советская проза. – Ташкент: Фан, 1968. – Б. 293-304.

¹⁰ Нарымбетов Ж. Каракалпакский роман. – Ташкент: Фан, 1974.

¹¹ Қожықбаев Ә. Қарақалпақ романы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977; О'sha muallif. «Ақдәрья»ны оқығанда // Әмиўдәрья. – Нөкис, 1962. - №10. – Б 123.

¹² Баҳадырова С. Роман ҳам дәўир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978.

¹³ Султанов А. Қарақалпақ прозасында Ш.Айтматовтың поэтикалық дәстүрлери. – Нөкис: Билим, 2007.

¹⁴ Мәмбетов Қ. Әдебият теориясы. – Нөкис: Билим, 1995; Нуржанов П. Дәўир талабы ҳам көркем әдебият. – Нөкис: Билим, 1993; Көркем прозаның баянлаў усылы ҳам оны изертлеўдиң айырым теориялық мәселелери // Әмиўдәрья. – Нөкис, 2002. - №5; Отемуратова Х. Қарақалпақ тарийхый романының поэтикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1997; Тарийхый романың сюжети // ӨзИИАҚҚБ хабаршысы. – Нөкис, 2000. - № 5.

K.Sultonovning badiiy nasriy asarlarining g'oyaviy mavzusi ko'pincha vatanparvarlikka bag'ishlangan. Bu baliqchilar turmushi orqali beriladi. Bunda yozuvchining his-tuyg'usiga ta'sir etgan narsaning roli ham alohida ko'zga tashlanadi. Voyaga yetgan yurti aholisining turmush tarzi, xalqining baliqchilik kasbi bilan shug'ullanishi yozuvchini ilhomlantirgan, deb hisoblash mumkin. Yozuvchining uslubiy o'ziga xosligini aniqlashtirish maqsadida bir xil mavzuda yozilgan K.Sultonovning "Oqdaryo" va O'.Ayjanovning "Orol quchog'ida" romanlarini qiyosiy tahlil qildik. Jumladan, bir qator adabiyotshunos olimlar ham, biz ham K.Sultonovning "Oqdaryo" romanidagi sujet-kompozitsiya qurilishida qo'shimcha epizodik qismlar qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Biroq yozuvchining ushbu usuldan foydalanishi uning o'z asar sujetining ikki-uch tarmoqda tasvirlanishiga imkoniyat yaratgan. O'z navbatida bu holat K.Sultonovning romanidagi sujet-kompozitsiya butunligining murakkab bo'lishiga olib kelgan. O'.Ayjanovning "Orol quchog'ida" romanida sujet kompozitsiya ko'pincha bir tarmoqda rivojlanib boradi. Asarning mana shunday uslublari ularning bir-biridan ajralib turishiga imkoniyat yaratgan. Shuningdek, ikki asarda ham vaqt va kenglik masalasida yozuvchilarning har birining alohida fikr, xulosalari mavjudligi aniq. Mana shunday qarashlar ikki romanda har xil rejada tasvirlanishida namoyon bo'ladi. Ikki yozuvchining romanlaridagi qahramon obrazlarida ham sujet voqealarini rivojlantirish masalasida yuzaga chiqadigan mana shunday farqli tomonlari ular ijodining o'ziga xos uslubga ega ekanligini ko'rsatadi. Obrazlardagi bunday tafovutlarni yozuvchining voqealarni bayon etishidagi haqiqatlikka, hodisalar o'z xarakterga, o'z ichki keshinmalariga, psixologik holatiga munosib tasvirlashga yondashuvining, voqealarni unga mos o'ziga xos bayon etishining, tasvirlashning yutug'i sifatida baholash mumkin. Bu holat yozuvchining haqiqatni o'zicha xulosalashining, o'zicha his qilishining, undan ta'sirlanishning asosiy farqli jihatlarini badiiy obrazda aks etishini ko'rsatadi. Mana shunday umumiy obrazdagi farqli xususiyat yozuvchining butun ijodiyotiga xos bo'lgan eng asosiy mezonni belgilaydigan belgi hisoblanadi.

Shu bilan birga qoraqalpoq nasrida qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatovning poetik asarlarini maxsus tarzda o'rgangan A. Sultonov "Ch.Aytmatov va K.Sultonov nasrida qochqin obrazining yaratilish xususiyatlari" masalasini o'rtaga tashlaydi va Ch.Aytmatovning "Yuzma-yuz" qissasidagi qochqin Ismoyil va K.Sultonovning "Oqdaryo" romanidagi Qodir obrazlarini yaratishdagi yozuvchilarning mahoratini qiyosiy o'rganadi. Obrazlarni yaratishda Ch.Aytmatov psixologik holatlarni ichki monolog va dialoglar yordamida berish orqali Ismoyilning obrazini yaratganlig'ini, K.Sultonov qahramonning monologlari orqali obraz yaratishga harakat etganligini, ularning obraz yaratishdagi xususiyatlari sifatida baholaydi. Shuningdek, muallif Ch.Aytmatovning ham, K.Sultonovning ham nomi tilga olingan asarlari haqida o'z vaqtida tanqidiy fikrlarning bo'lganligini, Ch.Aytmatov bu tanqidlarni to'g'ri anglab, asarini yana takomillashtirganini qo'llab-quvvatlaydi: "Agar K.Sultonov aytilgan to'g'ri adabiy tanqidga tirikligida

rioya qilib, asarning ayrim epizodlarini takroriy ko‘rib chiqib yoki olib tashlaganda, bu adabiy jarayon hamda roman kitobxonlari uchun ham so‘zsiz foyda keltirar edi”¹⁵. Muallifning bu fikrlari bundan oldin o‘zi tomonidan bildirilgan Qodir qochqin obrazining yaratilishiga bog‘liq romandagi “Qochqinning bulardan boshqacha umr surishining iloji ham yo‘q edi va ular o‘sha yillardagi hayotda bo‘lishi mumkin...”¹⁶ degan fikrini inkor qilgan.

Jahon adabiyotida qochqin obrazini yaratish tajribasi E.Xemingueyning “Alvido, qurol!” (“Proshay, orujie!”) (1929), Ch.Aytmatovning “Yuzma-yuz” (1957) V.Rasputinning “Tirik bo‘lsang unutma” (“Jivi i pomni”) (1974) kabi asarlarida ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi asarlardagi qochqin obrazlaridan V.Rasputin va Ch.Aytmatov qissalarida qochqinlarning hayoti ayanchli yakunlanadi, jamiyat ularni qabul qilmaydi. E.Xeminguey qochqin obrazini yaratishda uning psixologik holatini va urushga bo‘lgan nafratini birinchi o‘ringa chiqarsa, K.Sultonov bu borada boshqacha yo‘l tutadi. Uning qochqini o‘z xatosini tushunib, yangi hayotga qadam qo‘yadi. Obraz yaratishdagi bu yechim o‘sha vaqtda ko‘pgina olimlar tomonidan obraz evolutsiyasi uchun ishonchsiz yechim sifatida tanqid qilinsa ham, bu yozuvchining o‘ziga xos poetik mahoratining beqiyos namunasi ekanligi namoyon bo‘ladi.

Ushbu faslda K. Sultonovning shoirlik uslubi ham o‘rganilib, uning poetik fikrlarining nasriy asarlari badiiyligida ifodalanishi belgilab o‘tildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**K.Sultonov nasrida badiiy mahorat**” deb nomlangan bo‘lib, uch faslni o‘z ichiga oladi. Bunda K.Sultonov nasrining kichik janrlaridagi badiiy mahorati alohida tadqiq qilinadi.

“**Yozuvchi nasrida portret va manzara tasvirining badiiy ahamiyati**” deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi faslida yozuvchi asarlaridagi portret va peyzajning badiiyligi ochib berilgan.

K.Sultonovning yozuvchilik mahoratini ko‘rsatadigan belgilardan biri, uning badiiy portret yasashdagi o‘ziga xosligi sanaladi. K.Sultonov o‘zining hikoya, ocherk va qissalarida qahramonning tashqi qiyofasida, harakatlarida namoyon bo‘ladigan o‘zgarishlarni keltirishga alohida e‘tibor bergan. Buni biz bob davomida yozuvchining asarlarini tahlilga tortganimizda masalaga aniqlik kiritdik. Tadqiqot jarayonida yozuvchining asarlarida badiiy portretdan mohirona foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Biz mana shu tomonlarini hisobga olib, K.Sultonovning ijodida badiiy portret yaratishda bir qator usullarni qo‘llaganini aniqladik hamda ularni quyidagicha tasnif qildik:

a) asarda voqeaga bog‘liq yoki voqea boshlanmasidanoq tasvirlangan statik (ekspozitsiyaviy) portretlarning yasalishi. Bu ko‘pincha, asar muqaddimasida keng tasvirlangan. Bunga misol sifatida yozuvchining “Otalar hikoyasi” asarini misol qilish mumkin. “*Japsarda turi ózge eki jigít otr. Bizin awildin adamlarina usamaydi. Birewi jigirmadan asqan, juqa júzli, qara tori jigít. Ágam sonin menen áhgimelesip otr.*

¹⁵ Султанов А. Қарақалпақ прозасында Ш.Айтматовтың поэтикалық дәстүрлері. – Нөкіс: Билим, 2007. – Б. 104.

¹⁶ О‘sha manba. – Б. 94.

Ekinshisi, sari sunli, ele murti tap bermegen süyriktey sulıw bala jigiti. Eki betiniń almasınan nuri tamǵan, kózleri jawdırap, gáwharday jalt-jult etken, kórikli balanı qasındaǵı jigittiń inisi dewge hesh usamaydı”¹⁷.

Bu hali voqea boshlanmasidan oldin, asarga asos etib olingan qahramonlarning portreti bo‘lib hisoblanadi. Yozuvchi asarda bu qahramonlarning nomini birdangina ayta qolmay, ayol ularning qiyofasini, rasmini chizib ko‘rsatgan. Mana shu portretidagi qahramonlarning qiyofasini yozuvchi o‘z nomidan emas, balki asarda bosh qahramon xizmatini bajaradigan personajlardan biri Ospanning tilidan bayon etadi. Bu portretida ko‘rsatilgan qahramonlar Ortiq bilan Sapura edi. Mana shu tasvirlangan qahramonlar asosida voqea boshlanib ketadi.

b) voqea-hodisa bilan bog‘liq yaratilgan dinamik portretlar. Bunday portretlar ba‘zan asarda qahramonning dramatik ko‘rinishi bilan bog‘liq voqeaning boshlanishiga ham sabab bo‘ladi.

Yozuvchi badiiy portret yaratish bilan birga qahramonlarga xarakteristika ham berish usulidan mohirona foydalangan. Mana shunday portretni yaratishda yozuvchi bir necha usulni qo‘llangani ko‘zga tashlanadi. Ularni quyidagicha ko‘rsatish mumkin deb o‘ylaymiz:

a) asarda badiiy portret orqali qahramonga xarakteristika berish muallif tilidan beriladi;

b) asarda bir qahramon tilidan ikkinchi bir qahramonga badiiy portret orqali xarakteristika beriladi.

Asardagi Qo‘sjeterning portretiga e‘tibor beraylik: *“Men onı jastan bilemen. Inige miyirimli bul kishipeyil adam meni nárete qayıǵına mingizip, Aqdáryanıń aydın kóllerin talay gezdirgeni ele esimde. Onıń salmaqılı barmaqları menen úsh qulash qaraǵay tayawdı sıpırıp basqanda kishkene qayıǵı qaysar kúshke shıdamay qalıń qamıslardı tańkidey japıratuǵını, dáryanıń iyirimli aǵısın órlep saldaw tartqanda mezgillik joldıń tanabın quwiratuǵın, tuńǵıyıq teńizdiń úydey tolqınlarınıń arasında kewli qobaljımaytuǵın dáw júrekliligi meni tań qaldıratuǵın edi*”¹⁸. Bunda yozuvchinig mahorati badiiy asar qahramoni Qo‘sjeterning rang-u - ro‘yi, psixologiyasini tasvirlashda o‘zi nomidan emas, personaj tilidan ishonchli tasvirlashga erishgan. Portretting ushbu turini J.Qaniyazova o‘zining “Sh.Seytov romanlarida xarakter yaratish mahorati” deb atalgan dissertatsiya ishida fikr yuritadi. Tadqiqotchi Sh.Seytov portret yaratishda yozuvchi tavsifnomasi orqali beriladigan portretlar va personajlarning tilidan beriladigan portretlarning ham qo‘llanilishini, portretlar asosida qahramonlarning psixologiyasi va tasvirlanishini tahlil qiladi¹⁹. Yuqoridagi misolda ham J.Qaniyazova belgilab o‘tganidek portretning turi qo‘llanilgan, ya‘ni Qo‘sjeterning u yerda qoldirgan taassurotlari asosida tasvirlanadi. Bu tasvirlashlarda qahramonning tashqi rang-ro‘yi bilan ichki psixologiyasi bilan bog‘liq holda badiiylashgan. Masalan: *“Bıyl ol qırq úsh*

¹⁷ Султанов К. Ағалардың әңгимеси. - Нөкис: Қарақалпақстан, 1968. – Б. 7-8.

¹⁸ Султанов К. Ауылласларым. – Нөкис: Қарақалпақ мәмлекет баспасы, 1960. – Б. 107-108.

¹⁹ Қаниязова Ж.О. Ш.Сейтов романларында характер жаратыў шеберлиги («Халқабад» роман-тетрологиясы мысалында): Филол. илим. филос. д-ры (PhD) ... дис. – Нөкис, 2017.

yamasa qırq bes jaslarındama eken? Qara torı, aq jaqlı, ajarına ájim enip, qırǵawıldıń párindey sargısh murtına aq endime? Miyirimli qara kózlerin teńizdiń háwiri shalıp, qaq jıńǵılday qattı barmaqlarınıń kúshi qaytqan shıǵar. Balıqshınıń aldı bolsam degen ójet minezinen ayırılıp, kóptiń biri bolıp qaldıma eken? Joq. Ol kóptiń birine kónlikpeydi. Ómir dáryasınıń tolqını denesin qarpıp ótse de, bastan tete bolıp júredi. Ol kóptiń izinde qalmaydı. Qalıwı múmkin emes”²⁰ – degan portretta Qo’sjeterning tashqi ko’rinishi, xulqi, baliq ovlashda ko’pning oldida yurib, ularga boshchilik qilib, baliqchilik kasbini olib borish niyatini oldiga qo’ygan maqsadi bilan bog’lab tasvirlagan. Shuning bilan birga, bu portretta ichki xulq bilan qator tashqi ko’rinishning bog’liqlikda tasvirlanishi o’quvchida qahramonning qanday odam ekanligini bilishga keng imkoniyat yaratadi. Qahramonning vijdonli, kasbiga vafoli odami ekanligi kitobxon ko’z oldida gavdalanadi. Portretler orqali qahramonlarning qanday ekanini o’quvchi asarning davomida asta-sekin anglab boradi. Bu obraz tavsifining takomillashib borishi bilan aloqador yozuvchining tanlagan badiiy uslublaridan biridir.

Misolga olingan portret tasviri 1956-yili yozilgan I.Yusupovning “Qari tutdagi kuz” ocherkidagi shoir tomonidan tanlangan tasvirlash usuliga juda yaqin. Masalan, “Ǵarri tut aǵashınıń qosarlangan qos gújimdey munartqan kórinisi gúzgi gewgim ishinde joq bolıp baratırǵanday, ǵarri tut aǵashı óziniń bir máháli qulpirǵan jasıl sawlatın joǵaltıp, endi mine sawdıraǵan súyegi ǵana qalıp turǵan sıyaqlı. Aǵash ta qartaysa óz kórkin joǵaltadı. Mezgil aǵımı onıń qalıń qabıǵın gewlep, tamırına qurt bolıp túsedı. Onıń endi waqıttıń máńgi qıyratıwshı stixiyasına qarsı tiresip baǵarlıq burınǵı ǵayratı joq, shaqaları kem-kemnen quwrap, qalıń japıraqları siyreksip hám sarǵayıp baratır... Adam ǵana óz kórkin saqlap qaladı eken. Onı saqlap qalarlıq kúsh adamnıń aql hám miynetinde! Bul qásiyetli hám qúdiretli eki kúshı, adam qanshelli joqarı hám úlken maqsetke xızmet qıldıra bilse, ol sonshelli kórkemlikke bezeledi, sonshelli jasara túsedı!...”²¹. Bunda I.Yusupov tabiat tasvirini keltirish orqali insan portreti kabi uning ham “portretini” yaratadi. Shuningdek, ikki ocherkda ham tabiat tasviri inson umri bilan bog’lanadi. K.Sultanovda tabiat ko’rinishlari orqali (daryo to’lqini) insonning kuch-quvvatga to’la holatiga ishora etsa, I.Yusupov ham tut daraxtining holati (qarishi) inson umriga qiyoslanadi. Bu ikki ocherkni taqqoslar ekanmiz, ikki ijodkorning asari ham manzara va portret tasviriga juda boy, tilida poeziya “anqib” turishini sezish mumkin. Buning bosh sabablaridan biri sifatida ular ikkovining ham shoir ekanligi, she’r yozish mahorati deb hisoblash mumkin. Ikkinchidan, milliy nasrda poetik mahoratning takomillashuvida hayotiy omillarning yetakchiligi va haqiqiy go’zallikni ularning ko’ra olishi, seza bilishida hamda uni badiiy tilning barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda yetkazib bera olishida namoyon bo’ladi.

Shuningdek, yozuvchi nasrida somatik (tana a’zolariga bog’liq), vestial (kiyim-kechakka bog’liq) va kinetik (ruhiy holatga bog’liq) portretlar ham uchraydi.

²⁰ Султанов К. Ауыласларым. – Нөкис: Қарақалпақ мәмлекет баспасы, 1960. – Б. 120.

²¹ Юсупов И. Ǵарры туттаǵы гүз. – Нөкис: ҚМБ. – Б. 6.

Dissertatsiyada badiiy portret, qahramon xarakterini yaratish bo'yicha Rus adabiyotida M.N.Jornikova, o'zbek adabiyotida Sh.Botirova, qoraqalpoq adabiyotida yosh bilimdon G'.Allamuratovning somatik (tana a'zolariga bog'liq), vestial (kiyim-kechakka bog'liq) va kinetik (ruhiy holatga bog'liq) portretlar haqidagi fikrlari inobatga olindi ²².

Yozuvchi qahramon xarakterini ochishda uni tabiat ko'rinishlari bilan ham bog'laydigan usullarni qo'llangan. Bu yozuvchining mahoratini ko'rsatadigan belgilardan biri deb hisoblasa bo'ladi. K.Sultanov o'z asarlarida tabiat ko'rinishlarining poetik tasvirlanishini yaratishda maishiy detallardan unumli foydalanadi. Poetik manzaraning haqiqatligi turmush qiyinchiliklari, umr tashvishlari, insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar, insonning har xil kechinmalari tabiat tasvirlariga o'xshatiladi, yonma-yon qo'yiladi, qarama-qarshi qo'yiladi yoki taqqoslanadi. Masalan, "Orol qishlog'ining odamlari" nomli hikoyada tabiat manzarasi quyidagicha tasvirlangan:

*"Kóldiń qamısların shuwlattıp gúz ayı keldi. Dárya tartılıp, eki jaǵası adam boyı jar boldı. Qazanday qaynap, iyrim tartqan qaynawıt aǵıslar endi jipektey sozılıp aqtı"*²³.

Bu tabiatning bir ko'rinishi, ya'ni, daryo suvi oqimining badiiy tasvirlanishi. Bunda tasvirlangan manzara voqea-harakatning rivojlanishi bilan bog'lanmay, balki umumlashtirilgan bayoni, voqea boshlanmasidan oldin tabiat ko'rinishini tasvirlashi hisoblanadi. Bu usul ko'pincha adabiyotning vaqt kategoriyasi bilan bogliqligini berishda qo'llaniladi. Unda ko'pincha yil fasllarini anglatuvchi tabiat ko'rinishlari yoki kun bilan tunni tasvirlovchi tabiat ko'rinishlari qo'llaniladi.

Yozuvchining hikoya, ocherk va qissalarida tabiat manzarasi quyidagicha usullarda qo'llanilishi ko'zga tashlanadi:

- 1) voqeaning o'rnini hamda vaqtini belgilash;
- 2) syujet isboti;
- 3) psixologizm shakli;
- 4) peyzaj muallifning aloqada bo'lish shaklida tasvirlanadi hamda u yozuvchi ijodiy mahorati o'ziga xosliginin bir sharti sifatida xarakterlanadi.

"Yozuvchining ijodiy individualligi va badiiy til mahorati" deb nomlangan ikkinchi bobning ikkinchi faslida K.Sultanovning kichik nasriy janrlardagi asarlarida badiiy tasviriy vositalar va naql-maqollar uning ijodining ekspressivligini orttirib, estetik ahamiyatini oshirishga xizmat qilganligi isbotlangan. K.Sultanovning hikoya, ocherk va qissa janrlarida yaratgan asarlaridagi mahorat masalasiga e'tibor berar ekanmiz, yozuvchining bunday

